



## O‘ZBEKISTONDA FAVQULODDA VAZIYATLAR MONITORINGINI YURITISHDA IDORALARARO MA’LUMOT ALMASHINUVI VA HAMKORLIKNING BUGUNGI HOLATI

---

*Raimqulov Sherzod Zokir o‘g‘li*

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti*

*Magistratura tinglovchisi, kapitan*

**Annotatsiya.** Maqolada amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, Favqulodda vaziyatlar vazirligining boshqa favqulodda holatlarga aloqador idoralar bilan ma’lumotlar almashinuvi va hamkorlikning bugungi kundagi holati bo‘yicha ba’zi masalalari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** favqulodda vaziyatlar monitoringi, favqulodda holatlarda axborot almashinish, fuqaro muhofazasi.

**Аннотация.** В статье анализируются некоторые вопросы современного состояния информационного обмена и сотрудничества МЧС с другими ведомствами, связанными с чрезвычайными ситуациями, в соответствии с действующими нормативными документами..

**Ключевые слова:** мониторинг чрезвычайных ситуаций, обмен информацией при чрезвычайных ситуациях, гражданская защита.

**Annotation.** The article analyzes some issues of the current status of information exchange and cooperation of the Ministry of Emergency Situations with other agencies related to emergency situations in accordance with the current legal documents..

**Keywords:** monitoring of emergency situations, information exchange in emergency situations, civil protection.


O‘zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning monitoringini yuritish va prognoz ma’lumotlarini tayyorlashda idoralararo ma’lumot almashinuvi hamda hamkorlikda harakatlanish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo‘nalishda bir qator tashkiliy-huquqiy muammolar mavjudligi ularning oqibatlarida ham namoyon bo‘lmoqda.

Ma’lumotlar tahliliga ko‘ra, favqulodda vaziyatlar yo‘nalishida idoralararo ma’lumot almashinuvi tizimini tartibga solish bo‘yicha qonunosti hujjatlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bu esa ayrim vazirlik va idoralar tomonidan monitoring va prognoz ma’lumotlarini o‘z vaqtida taqdim etilmasligiga sabab bo‘lmoqda.

Qayd etish joizki, mazkur yo‘nalishdagi vazifalar, dastlab O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 11-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi 143-sonli Qarorida ko‘rsatilgan.



Ushbu qarorning 13-bandida: O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, “O‘zbekenergo” aksiyadorlik jamiyati, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi, “Sanoatgeokontexnazorat” davlat inspeksiyasi, Fanlar akademiyasi, “O‘zbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasi, “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik kompaniyasi va “O‘zgidromet” markazi O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini hududlar, ob’ektlardagi tabiiy-iqlim, ekologik, epidemiologik, epizootik, geologik va texnologik vaziyat hamda ularning yaqin davrda va istiqbolda o‘zgarishi ehtimollari to‘g‘risidagi axborot bilan muntazam ravishda, favqulodda vaziyatlarda esa darhol ta‘minlashlari ko‘rsatib o‘tilgan.



**1. Sxema. Favqulodda vaziyatlar bilan bog‘liq tahdidlar yuzasidan axborot almashinish tartibi.**



Shuningdek, favqulodda vaziyatlar yo‘nalishida ma‘lumot almashinuvi bugungi kunda yagona bo‘lgan hujjat, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri — Fuqaro muhofazasi boshlig‘ining 2008-yil 26-dekabrda buyrug‘i asosida amalga oshiriladi.

Ushbu buyruqda vazirlik va idoralar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va uning hududiy bo‘limlariga sakkiz turdagi ma‘lumotlarni taqdim etishlari belgilangan, shu jumladan, monitoring ma‘lumotlarini ham. Biroq, monitoring yoki prognoz ma‘lumotlarini tayyorlash, taqdim etish tartibi yoki ularning yagona shakli ushbu hujjatda aniq ko‘rsatib o‘tilmagan.

Bu esa, o‘z navbatida, Favqulodda vaziyatlar vazirligiga ayrim vazirlik va idoralar tomonidan zarur ma‘lumotlarni o‘z vaqtida hamda yagona shaklda taqdim etilmasligiga olib kelmoqda.

Jumladan, FVV ga taqdim etilayotgan ma‘lumotlar tahlil qilinganda, FVDT tarkibiga kiruvchi 17 ta vazirlik va idoradan faqat “O‘zgidromet” markazi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi hamda O‘zRFA Seysmologiya institutidan (haftalik) favqulodda vaziyatlar masalalariga oid ma‘lumotlar to‘liq va doimiy ravishda FVVning Favqulodda vaziyatlarda boshqaruv markaziga taqdim etib kelinayotgani ma‘lum bo‘ldi.

Ta‘kidlash joizki, turli xavfli hodisa yoki halokatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar dastlab tegishli vazirlik va idoralarning navbatchi-dispatcher xizmatlari (101,102,103,104,050 va h.k)da qayd qilinadi. Ushbu dastlabki ma‘lumotlarning monitoringini yuritish ham muhim hisoblanadi. Chunki ma‘lum hududdagi xavfli vaziyat vaqt o‘tgach, aksariyat holatlarda boshqa hududda namoyon bo‘lishi kuzatiladi.

Hozirgi kunda vazirlik va idoralarning joylardagi tuzilmalari hamda mahalliy hokimlik tizimida yuzaga kelayotgan favqulodda vaziyatlar yoki inson hayoti va sog‘lig‘iga xavfli ta‘sir etuvchi holatlar sodir bo‘lganda, tegishli xizmatlarga o‘z vaqtida xabar berish tartibi yetarlicha takomillashmagan holatda saqlanib qolmoqda. Bu holatni so‘nggi yillarda sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning oqibatlarida ham kuzatish mumkin.

Xususan, o‘tgan yillar davomida fuqarolar, idora va tashkilotlar tomonidan it tishlash holatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar tegishli vazirliklarga kechiktirib berilgan yoki yashirish holati qayd qilingan. Bu, o‘z navbatida, fuqarolar favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda kimga murojaat qilish kerakligini bilmasligi yoki vazirlik va idoralarning o‘zaro axborot almashinuvi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganini ko‘rsatadi. Natijada qutirish va boshqa infektsiyali kasalliklar o‘chog‘ini o‘z vaqtida zararsizlantirish ishlari kechikishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, joylarda yuzaga kelayotgan vaziyatlarda turli halokat va avariyaalarning oldini olish va ularda harakat qilishni tashkillashtirishda hamkorlikning talab darajasida emasligi, aholi va tashkilotlarning mas‘ul xodimlari



uchun istalgan vaziyatda murojaat qilishlari uchun yagona bir tizim mavjud emasligida deb ham baholash mumkin.

Amaldagi mavjud mexanizm turli xavf va favqulodda vaziyatlarning turiga, ko‘lamiga qarab, aholi va tashkilotlar mas’ul xodimlari tomonidan Ichki ishlar, Sog‘liqni saqlash, Favqulodda vaziyatlar vazirligi boshqarmalari va boshqa tegishli tashkilotlarga alohida xabar berilishini o‘zida aks ettiradi.

Bu esa, o‘z navbatida, xabar beruvchiga yuzaga kelgan vaziyatni birlamchi o‘rganib chiqishga, uni bartaraf etish uchun jalb qilinadigan xizmatlarning bilishiga hamda birma-bir xabar berish mas’uliyatini yuklaydi. Fuqarolarning aksariyati yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarni to‘g‘ri baholay olmayotgani va aynan qaysi xizmatga murojaat qilishni bilmasligi, ayrim xizmatlarga ular vakolatiga taalluqli bo‘lmagan murojatlar kelib tushishiga olib kelmoqda.

Mazkur holat sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlarda vazirlik va idoralarning maxsus guruhlarining hamkorlikdagi harakatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Chunki fuqaro yoki tashkilot tomonidan aksariyat holatlarda faqat bitta xizmatga murojaat etilishi tabiiy xoldek. Ammo sodir bo‘layotgan favqulodda vaziyatlar aksariyati bir nechta maxsus qutqaruv, avariya-tiklov guruhlarining birgalikdagi harakatini talab etadi. O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2013-yili mamlakatimiz hududida 142 ta favqulodda vaziyatlar yuz bergan bo‘lib, ularning faqatgina 35 tasida hamkorlikda qutqaruv ishlari tashkil etilgan. Xuddi shunday statistika avvalgi yillarda ham kuzatilgan.

Bu borada turli xavfli hodisa, texnogen avariya, tabiiy ofat va boshqa inson hayoti, sog‘lig‘iga hamda atrof-muhitga tahdid soluvchi vaziyat yuzasidan fuqarolarga qulay bo‘lgan yagona telefon raqami

(112, 911, 111, 050 va h.k) orqali murojaat etish tizimini yaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Bunday tizimni respublika bo‘ylab, ya’ni tuman, shahar, viloyat, respublika darajasida tashkil qilish mumkin. Unga ko‘ra, “Yagona navbatchi-dispatcherlik xizmati”ni mahalliy hokimliklarda tashkil etish nazarda tutish kerak.

Favqulodda vaziyatlarning monitoringini yuritish va prognoz qilish tizimining samaradorligini oshirish asosan idoralararo ma’lumot almashinuvi hamda hamkorlikda harakatlanish mexanizmiga bog‘liq deyish mumkin. Shuning uchun Respublikada favqulodda vaziyatlar yoki ular tahdidi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish mexanizmini belgilovchi hukumat qarorini qabul qilish va YaNDX tizimini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Qayd etish joizki, o‘zbekistonlik mutaxassislarining mazkur ko‘llar bo‘yicha tadqiqot olib borish lozimligi to‘g‘risidagi murojaatlariga yuqorida keltirilgan davlatlar tomonidan rad javob berib kelinmoqda.

Xususan, 2015-yili ob-havoning isishi natijasida Tojikistonning bir nechta tumanlaridagi tog‘li hududlarga sel kelgan. Buning oqibatida jami 72 ta xonadon buzilgan hamda 15 nafar fuqaro halok bo‘lgan, umumiy zarar miqdori 600 mln.



somoniy (deyarli 100 mln. AQSh dollari)ni tashkil etgan. Bu kabi vaziyatlar Qirg'izistonning ayrim hududlarida ham qayd etilgan bo'lib, Ala-Archa, Qizil-Art va So'x daryolarida suv sathining keskin ko'payishi kuzatilgan. Bugungi kunga qadar O'zbekiston hududida yirik talafotlar keltirgan transchegaraviy xususiyatli favqulodda vaziyat (sel oqimi) 1998-yili Shohimardonda sodir bo'lgan.

Aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi transchegaraviy favqulodda vaziyatlarning oldini olish borasida mintaqa davlatlari bilan bir nechta kelishuv imzolagan bo'lib, ularning aksariyatida ma'lumot almashinuviga alohida urg'u berilgan. Ammo mavjud mexanizm haligacha ishlamayotgani kuzatilmoqda.

Xususan, ma'lumot almashinuvi masalalari MDH doirasida 1993 yildagi "Tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarda xabar berish va hamkorlikda harakatlanish to'g'risida"gi kelishuvning 3-moddasida, 1998 yildagi "Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston o'rtasida favqulodda vaziyatlarda hamkorlik qilish to'g'risida"gi kelishuvning 4-moddasida hamda 2005-yili SHHT doirasida imzolangan "Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning favqulodda vaziyatlarda hamkorlikda harakatlanish va yordam ko'rsatish to'g'risida"gi kelishuvning 2-moddasi 5-bandida ko'rsatib o'tilgan.

Biroq, hozirgi kunga qadar O'zbekiston tomonidan Qirg'iziston va Tojikiston hukumatlariga monitoring va boshqa ma'lumotlar olish uchun qilingan murojaatlar javobsiz qolmoqda. Bu, o'z navbatida, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan transchegaraviy favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini kamaytirish faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazadi.

#### ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.–T.:“O'zbekiston”, 2014.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 martdagi “O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida”gi PF-1378-sonli Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi axborot-huquqiy tizimi “Lex.uz”, 2016.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997 yil 27 avgustda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik konsepsiyasi.
4. O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 20 avgustdagi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi axborot-huquqiy tizimi “Lex.uz”, 2016.
5. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 31 avgustdagi “Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida”gi Qonuni.// O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi axborot-huquqiy tizimi “Lex.uz”, 2016.